

**SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGINI
TA'MINLASH VA BANKROTLIKNI OLDINI OLISH YO'LLARI**

Shavqiyev Erkin

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti

Raqamli Iqtisodiyot kafedrası professori.

Qahhorova Nargiza Qahramonovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

IK-122 guruh talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va ularning bankrotlik holatiga tushib qolishining oldini olish yo'llari tahlil qilinadi. Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, samaradorligini ta'minlash, biznes jarayonlarini optimallashtirish va moliyaviy xavflarni boshqarish usullari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, korxonalarning bankrotlikka uchrashining asosiy sabablari tahlil qilinib, ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari, iqtisodiy barqarorlik, bankrotlik, moliyaviy boshqaruv, samaradorlik, biznes jarayonlari, investitsiyalar.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi ularning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi muhimdir. Biroq, turli iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy omillar natijasida ayrim sanoat korxonalari bankrotlikka uchrash xavfi ostida bo'ladi. Shu sababli, korxonalar moliyaviy boshqaruv va risklarni minimallashtirish strategiyalariga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash yo'llari quydagilar: Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarni to'g'ri



yuritish va tahlil qilish, xarajatlarni optimallashtirish va daromadlarni oshirish strategiyalarini ishlab chiqish, sarmoyalarni samarali boshqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, yangi texnologiyalar orqali mahsulot tannarxini pasaytirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarga e'tibor qaratish, bozor strategiyalarini rivojlantirish, ichki va tashqi bozor tahlilini muntazam olib boorish, marketing strategiyalarini takomillashtirish, brend imidjini mustahkamlash, risklarni minimallashtirish va moliyaviy xavfsizlikni oshirish, korxona aktivlarining diversifikatsiyasi, sug'urta mexanizmlaridan foydalanish, moliyaviy xavflarni oldindan baholash va boshqarish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish, soliq imtiyozlari va subsidiyalar olish, davlat grantlari va investitsion dasturlarda ishtirok etish va eksportni rag'batlantirish siyosatidan foydalanish.¹

Iqtisodiy barqarorlik — bu iqtisodiyotning to'liq ish bilan ta'minlangan va inflyatsiya, kreditlarni qaytarish va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha muvozanatni saqlashni anglatadi. Barqaror iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat. Sust o'sishning oldini olish, iqtisodiyotning ortiqcha pasayishi yoki ijtimoiy ta'sir ko'rsatadigan yirik pasayishlardan (recessions) saqlanish. Inflyatsiyani boshqarish, narxlar darajasining barqaror o'sishi (yoki inflyatsiya) iqtisodiy faoliyatni muvozanatlashda muhim ro'l o'ynaydi. Juda yuqori yoki juda past inflyatsiya ham iqtisodiyot uchun zararli. Mehnat bozori barqarorligi, Ishsizlikning pasayishi va ish bilan ta'minlashning barqarorligi iqtisodiy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Iqtisodiy barqarorlik va global iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun davlatlar va xalqaro tashkilotlar quyidagi yo'nalishlarda harakat qilishlari lozim:

1. Innovatsiyalarni rivojlantirish va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish.
2. Yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikni ta'minlash.
3. Xalqaro savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish orqali global integratsiyani kuchaytirish.

¹ Umarov A., Xudoyberdiyev B. „Moliyaviy menejment“ – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.



4. Inson kapitaliga sarmoya kiritish, jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga e'tiborni oshirish. Shu bilan birga, iqtisodiy siyosatda uzoq muddatli strategiyalarga e'tibor qaratish muhimdir. Faqat qisqa muddatli inqirozlarni bartaraf etish emas, balki iqtisodiy tizimni mustahkamlash va tashqi ta'sirlarga chidamli bo'lishni ta'minlash kelajak uchun zaruriy omillardir.

Bankrotlik-fuqaro, korxona, firma yoki bankning mablag'i yetishmasligidan o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarni to'lashga qurbi yetmasligi; qarzdorning majburiyatlari mol-mulkidan oshib ketganligi sababli tovar (ishlar, xizmatlar) ga haq to'lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga qodir emasligi, shuningdek byudjetga va boshqa fondlarga majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi tushuniladi. Bankrotlik, odatda, korxonaning yopilishiga olib keladi. Chunki qarz (kredit) beruvchining talabini qondirish uchun mol-mulkini sotishdan o'zga chorasi qolmaydi. Bankrotlikka uchrashning sabablari tovar ishlab chiqarishda qiymati qonunning amal qilishi, raqobat va inflyatsiya bilan belgilanadi.

Bankrotlikni oldini olish uchun sanoat korxonalari quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim:

- Moliyaviy monitoring tizimini yaratish: Korxona moliyaviy ahvolidan doimiy monitoringi imkoniyati bo'lishi kerak.
- Qarz yukini kamaytirish: Kreditlash siyosatini oqilona olib borish va kreditlarni samarali ishlatish muhim ahamiyat kasb etadi.
- Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: Resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish kerak.
- Menejment tizimini takomillashtirish: Korxonani boshqarishda zamonaviy menejment uslublaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi.
- Mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish: Sifatli mahsulot va xizmat ko'rsatish orqali doimiy mijozlar bazasini shakllantirish lozim.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va bankrotlikka uchrashining oldini olish uchun moliyaviy boshqaruvni yaxshilash, innovatsiyalarni joriy etish, risklarni kamaytirish va bozor talablariga moslashish muhimdir. Shu bilan birga, korxonalar davlat tomonidan



yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishi kerak. Mazkur strategiyalar sanoat korxonalarining uzoq muddatli rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmanov Q.X., Eshnazarov A.A. „Korxonalar iqtisodiyoti” – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2021.
2. Umarov A., Xudoyberdiyev B. „Moliyaviy menejment” – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
3. Smith A., „Wealth of Nations” – London: Penguin Books, 1776.
4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.
5. Harvard Business Review. „Financial Stability Strategies for Industrial Enterprises”, 2023.